



**Transport vositalari egalarining fuqarolik  
javobgarligini majburiy sug'urtalash  
shartnomasini tuzish uchun arizani onlayn  
rejimida qabul qilish xizmati bo'yicha  
OMMAVIY OFERTA**

**OMMAVIY OFERTA**

Ushbu hujjat «Gross Insurance» MChJ sug'urta kompaniyasi (keyingi o'rinda - Sug'urtalovchi)ning quyida keltirilgan shartlarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash (keyingi o'rinda - FJMS) shartnomasini tuzish uchun arizani onlayn rejimida qabul qilish xizmati bo'yicha rasmiy taklifi hisoblanadi va ommaviy oferta (keyingi o'rinda - Oferta) deb tan olinadi.

1. Ushbu oferta doirasida Sug'urtalovchi Arizachiga FJMS shartnomasini tuzish uchun arizani rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlarni 2008 yil 21 apreldagi O'RQ-155-sonli "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 iyundagi 141-sonli qarori 4-sonli ilova)ga muvofiq taqdim etadi.

2. Xizmat Arizachi tomonidan Sug'urtalovchining [www.gross.uz](http://www.gross.uz) manzili bo'yicha onlayn sotuvlar tizimidan foydalanilganda taqdim etiladi.

3. Arizachi Sug'urtalovchining onlayn sotuvlar tizimining "TVEFJMS" bo'limida buyurtmani rasmiylashtirishda maydonlarni to'ldirishni va FJMS polisi qiymatini dastlabki hisoblashni mustaqil amalga oshiradi.

4. Arizachi quyidagi hujjatlarning elektron nusxalarini (fayllar ko'rinishida) taqdim etishi shart:

a) pasport yoki sug'urta qildiruvchi – jismoniy shahsning yoki transport vositasini boshqarishga ruhsat etilgan boshqa kishilarning shahsini tasdiqlovchi boshqa guvohnoma (fotosurat va doimiy yashash joyi to'g'risidagi so'nggi qaydlar tushirilgan betlari);

b) texnik pasport (hisob-ma'lumotnoma) yoki transport vositasini davlat ro'yhatidan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma (FJMS Qoidalarining 14-bandida ko'rsatilgan holatda - transport vositasini oldi-sotdisi (almashish, sovg'a qilish) to'g'risidagi shartnoma nusxasi);

v) majburiy sug'urta qilish shartnomasi transport vositasini boshqarishni faqat belgilangan shahslarga (transport vositasining egasidan tashqari transport vositasini



**Transport vositalari egalarining fuqarolik  
javobgarligini majburiy sug'urtalash  
shartnomasini tuzish uchun arizani onlayn  
rejimida qabul qilish xizmati bo'yicha  
OMMAVIY OFERTA**

boshqarish ruhsat etilgan barcha shahslar uchun) ruhsat etish sharti bilan tuzilgan holatda – transport vositasini boshqarish uchun ishonchnoma yoki ushbu transport vositasiga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi boshqa har qanday hujjat;

g) majburiy sug'urta qilish shartnomasi transport vositasini boshqarishni faqat belgilangan shahslarga ruhsat etish sharti bilan tuzilgan holatda – transport vositasini boshqarish ruhsat etilgan barcha shahslarning haydovchilik guvohnomasi, yoki barcha haydovchilarning transport vositasini boshqarish huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;

d) sug'urta qildiruvchi-jismoniy shahslarning Ushbu qoidalarning 33-bandiga muvofiq sug'urta mukofoti bo'yicha chegirma olish huquqiga ega shahslar toifasiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar (guvohnoma, ma'lumotnomalar va boshqalar) (mavjud bo'lganda).

5. Elektron nusxalarni taqdim etish shakli va shartlari Sug'urtalovchi tomonidan belgilanadi va Sug'urtalovchining onlayn sotuvlar tizimi saytida ko'rsatiladi.

## **MUHIM**

6. Arizachi taqdim etilgan hujjatlarni elektron nusxalarining haqqoniyligi va asl nusxasi bilan bir hilligi bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi

7. Sug'urtalovchi Arizachi taqdim etgan hujjatlarni elektron nusxalarining sir tutilishini va saqlanishini, ularni uchinchi shahslar tomonidan noqonuniy ishlatilishidan himoyasini ta'minlash majburiyatini oladi.

8. Buyurtmani qayta ishlash har ish kuni soat 09.00 dan 17.00 gacha amalga oshiriladi. Ish vaqtidan tashqari paytda tekshiruvga yuborilgan buyurtmalarni qayta ishlash keyingi ish kunida amalga oshiriladi.

9. To'lov tizimining himoyalangan kanaliga yuborish uchun buyurtmani qayta ishlash yakunlanganligini tasdiqlash Sug'urtalovchi tomonidan Arizachining arizasida ko'rsatilgan uyali aloqa telefon raqamiga sms-habar yuborish orqali amalga oshiriladi.

10. Tasdiqlash kodiga ega sms-habar olingandan so'ng Arizachi elektron to'lov tizimini (PayMe yoki UPay) tanlashi zarur, so'ngra u hisoblangan sug'urta mukofoti miqdorini Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish uchun avtomatik ravishda tanlangan to'lov tizimi saytiga o'tkaziladi.



**Transport vositalari egalarining fuqarolik  
javobgarligini majburiy sug'urtalash  
shartnomasini tuzish uchun arizani onlayn  
rejimida qabul qilish xizmati bo'yicha  
OMMAVIY OFERTA**

11. Sug'urtalovchi FJMS polisi qiymatini to'lash to'g'risidagi tasdiqnomani olgandan so'ng, ariza-anketada ko'rsatilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, bir ish kuni mobaynida, keyinchalik Arizachini FJMS polisining seriya raqami, amal qilish muddati va to'lov miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarga ega sms-habar orqali habardor etish sharti bilan, belgilangan shakldagi blankda FJMS polisini rasmiylashtirish va muhr bosishni amalga oshirish majburiyatini oladi.

**MUHIM**

12. Arizachi tomonidan FJMS polisining seriya raqami, amal qilish muddati va to'lov miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarga ega sms-habarini olish FJMS shartnomasini tuzish holatini tasdiqlamaydi. Sug'urtalovchi tomonidan Arizachiga (sug'urta qildiruvchiga) FJMS polisi va mahsus davlat belgisi topshirilgandan so'ng FJMS shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

13. Sug'urtalovchi FJMS polisini Toshkent shahri chegarasida Arizachi tomonidan ko'rsatilgan manzilga bepul etkazib berishni ta'minlaydi.

14. Arizachi o'z hohishi bo'yicha arizasini to'ldirayotgan paytda tanlagan Sug'urtalovchi bo'linmasiga mustaqil murojaat qilishi, taqqoslash uchun kerakli hujjatlarning asl nusxalarini taqdim etishi, va FJMS polisini olishi mumkin.

**MUHIM**

15. Sug'urtalovchi Arizachi tomonidan FJMS polisini to'lash va uni Arizachiga rasman topshirish vaqti orasidagi muddat ichida uchinchi shahslarga etkazilgan zarar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

16. FJMS polisi qiymatini (sug'urta mukofotini) to'lash holati va FJMS polisini qabul qilish ushbu Ofertani aksepti (shartlarni qabul qilish) deb hisoblanadi.

INSURANCE



**Transport vositalari egalarining fuqarolik  
javobgarligini majburiy sug'urtalash  
shartnomasini tuzish uchun arizani onlayn  
rejimida qabul qilish xizmati bo'yicha  
OMMAVIY OFERTA**

**SUG'URTALOVCHINING REKVIZITLARI:**

To'liq nomi:

OOO «Gross Insurance» MChJ sug'urta kompaniyasi

Pochta manzili:

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, A.Temur ko'chasi, 1-tor ko'cha, 6-uy

Elektron manzil (rasmiy veb-sayt / elektron pochta):

[www.gross.uz](http://www.gross.uz) / [info@gross.uz](mailto:info@gross.uz)

Davlat ro'yhatidan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlar:

Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 17.11.2011 yilda №103-sonli reestr raqami bilan ro'yhatga olingan

Licenziya to'g'risidagi ma'lumotlar:

№ SF 00214-sonli licenziya O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 25.04.2016 yilda berilgan

**GROSS**  
INSURANCE